



**1991-yildan
chiqa boshlagan**

2021-yil. 10-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

21 - ОКТАБР - О'ЗВЕК ТИЛИ БАЙРАМИ КУНИ



Ushbu sonda



Dolzarb mavzu

Til ilmi va
ta'liming
muntazamligi

7-bet



Tilshunoslik

Adabiy nutqqa e'tibor –
millatga e'tibor

16-bet



Tahlil

Muhammad Yusuf
shoh satrlari

31-bet



Tadqiqotlar

Pragmatika va uning
mohiyati

32-bet



Научные исследования

Роль культуры чтения
в гармонизации и
совершенствовании
современной молодежи

74-bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2021-yil. 10-soni.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV

Dilshod KENJAYEV

Nizomiddin MAHMUDOV

Nargiza RAHMONQULOVA

Yorqinjon ODILOV

Nasirullo MIRKURBANOV

Jabbor ESHONQULOV

Valijon QODIROV

Baxtiyor DANIYAROV

Abdurahim NOSIROV

Tolib ENAZAROV

To'lqin SAYDALIYEV

Ravshan JOMONOV

Zulkumor MIRZAYEVA

Qozoqboy YO'LDOSHEV

Nilufar NAMOZOVA

Lutfullo JO'RAYEV

(bosh muharrir o'rinnbosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA

Nigora URALOVA

Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi
32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,

(71) 233-03-10,

(71) 233-03-45,

(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vеб-сайт: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyan nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mullofiga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 2021.25.10.da topshirildi. Offset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Sharcli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasi. 10, 11 kegl. "ECO TEXTILE PRODUCT" bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh., Uchtepa tum., Katta Xirmontepa va Shirin ko'chalari kesichmasi, 47 "A" uy. Buyurtma №: Adadi 3570 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI
XALQ TA'LIMI VАЗİRLİĞİNİNG
ILMIY-METODİK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

MUNDARIJA

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

SUHBAT

Nigora URALOVA. O'zbek tili – xalqimiz barhayotligi va davlatimiz mustaqilligi ramzi 3

DOLZARB MAVZU

Nizomiddin MAHMUDOV. Til ilmi va ta'limingining muntazamligi 7

Baxtiyor MENGLIYEV. Yangi til siyosati taraqqiyot taqozosi 10

Bashorat BAXRIDDINOVA. O'zbek o'quv lug'atchiligi: kecha, bugun, ertaga 12

TIHLUNOSLIK

Jumanazar ABDULLAYEV. Adabiy nutqqa e'tibor – millatga e'tibor 16

Murodqosim ABDIYEV. Davlat tili tarixi, muammolar va ularning yechimi 20

Zamira SARIEVA. Contrastive analysis of personal pronouns in the English and Indonesian languages 22

Umid XO'JAMQULOV. Millat tili haqida ayrim mulohazalar 23

Zukhra SHERMATOVA. Advantages of using inductive method in teaching grammar 25

Feruza KATTAEVA, Dilorom SAFAROVA. Reading as the way of forming sociocultural competence 26

TAHLIL

Dildora G'AYBULLAYEVA. Komparativ model asosida shakllangan frazeologik birliklarning lingvokulturologik tahlili 28

Ilhom G'ANIYEV. So'z siyratidagi sirlar 30

Nigora SAYDAXMEDOVA. Muhammad Yusuf shoh satrlari 31

TADQIQOTLAR

Havaxxon SHOKIROVA. Pragmatika va uning mohiyati 32

Rajabboy NABIVEV. Forish tumani shevalaridagi chorvachilik terminlari 34

Ikrom ISLOMOV. O'zbek terminosistemasi va unda geografik terminlar mikrosistemasingin o'rni 36

Komil QARSHIYEV. Jamol Kamol murabbalarida xalqona ohang 38

Samadi NOORIA. Ingliz tilini o'qitishda dariy (fors) tilining ta'siri va interferensiya 40

Sevaraxon HAMDAMOVA. Gender terminologiyasi, konsepsiysi va izohlari 42

KICHIK TADQIQOTLAR

Nasiba MUHAMMADIYEGA. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda axborot-kutubxona markazlarining o'rni 44

Munira RAMAZONOVA. Sirojiddin Sayyid she'riyatida ona vatan va ota makon madhi 45

Botir OQOBOTAYEV. "Hayrat ul-abror" hikoyatlarining o'rganilishi haqida 47

Jamshid SHODIYEV. Abu Nasr Sarrojning tasavvuf adabiyotida tutgan o'rni 48

МЕТОДИКА. ОПЫТ

Nargiza Nasirova. Состав слова. Способы образования слов 49

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Nargiza Sharipova. О составлении и разработке двуязычного словаря юридических терминов и сочетаний 52

Виктория Гимадетдинова, Наргиза Ходжаева. Актуальные проблемы преподавания

руссского языка в поликультурном пространстве 53

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Dilnaza MUHITDINOVA. Применение медиатехнологий в обучении русскому языку и литературе во внеурочной деятельности 55

Marvar SHAFAFTDINOVA. Mesto intellektualnykh kart v obucheniye uchashchixsya russkому yazyku kak nerodnomu (PKI) 57

Gulybaxor RUMZATOVA. Использование басен при изучении русского языка 59

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Odina PAXMATOVA. Понятие жанра в речевом дискурсе 60

El'zina KUBEDINOVA. Ob osobennostyakh peredovedenija 61

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

Ekaterina AMINOVA. Binoimali v angliyskom yazyke 63

ПРОБЛЕМЫ. ПОИСКИ. РЕШЕНИЯ

Tatyana TRIGULOVA. Kognitivnyi dissonans i ego vliyanie na mezhkul'turnuyu kommunicaciyu 64

Dildora URINBAEVA. Rol' i znamenie inovatsionnykh tekhnologij pri izuchenii problemy peredovedenija v sovremennom uchenom processe 65

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Zulhumor EGAMNAZAROVA. Особенности сатиры А.Ф.Писемского и его взгляды на russkuyu deystvitel'nost' 67

Margarita BULYCHEVA. Spory vokrug tvorchestva Ernesta Hemingwaya 71

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Ravil' AISHPOV, Muxay'et KODIROVA. Rol' kul'tury chteniya v гармонизации i совершенstvovanii

sovremennoj molodzhi 74

СВЕТ НЕГАСНУЩИХ ИМЕН

Anatolij LIKHODZIEVSKIJ. Pisatel' i «amerikanskaya metcha» 78

son. This may be one of the reasons why the formal form of the personal pronoun was used. The age category does not have an impact on the usage of the personal pronoun "I" in the English language.

The third person singular.

In the Indonesian language, the third person singular is denoted by the pronoun "dia" or "ia" and "beliau" in the formal way. But all these personal pronouns do not refer to the gender unlike in the English language, where "he" refers to male, "she" refers to female and "it" refers to neutral.

Examples:

Indonesian: *Namun, senyum Bu Mus adalah senyum getir yang dipaksakan karena tampak jelas beliau sedang cemas.*

English: Yet Bu Mus's smile was a forced smile: she was apprehensive.

Indonesian: *Ia teringat bebunyian itu. Lebih dari setahun yang lalu, bercampur dengan satu lagu yang dulu ia putar hampir tiap malam saat memahat sendiri di sini.*

English: He remembered the sound. More than a year ago, mingled with one song he used to play almost every night while sculpting here alone.

The gender category does not influence on the usage of personal pronouns in the third person singular

in the Indonesian language, but it does in the English language.

There are three forms of the third person singular personal pronouns in the English language:

He – third person singular (masculine)

She – third person singular (feminine)

It – third person singular (neutral)

Another difference is in the pragmatic use of these forms of personal pronouns. In the Indonesian language, the categories of age, respect and kinship have a great impact on the usage of personal pronouns as, they change the personal pronouns. For example, the word "ibu" can be translated as "mother" into the English language, but when one refers to the older woman, the speaker cannot use "you", but should use "ibu" instead.

In conclusion, the usage of personal pronouns mainly depends on grammar and semantic aspects, but at the same time, the person who uses these pronouns should consider cultural aspects of the target language due to several reasons such as avoiding miscommunication and showing disrespect. The examples provided show that the categories like age, social status and humbleness influence on the usage of personal pronouns. This factor can be interpreted as cultural impact on the language we use.

References:

1. Stig Johansson. Contrastive analysis and learner language: A corpus-based approach. – University of Oslo, 2008.
2. Robert Lado. Linguistics Across Cultures. – Michigan University Press, 1957.
3. Acep Unang Rahayu. Differences on Language Structure between English and Indonesian. – International Journal of Languages, Literature and Linguistics, Vol. 1, No. 4, December 2015.

Umid XO'JAMQULOV,
*Chirchiq davlat pedagogika instituti professor v.b.,
pedagogika fanlari doktori*

MILLAT TILI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Til – yuksak ma'naviyat belgisi

Til va unga munosabat masalasi yuksak ma'naviyat belgisidir. Buyuk so'z san'atkori Abdulla Qodiriy: "So'z so'ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak", degan edi. Qodiriyning "andisha"si zamirida tilning beqiyos ne'mat ekanligi, unga nisbatan javobgarlik hissi va uni saqlab qolish hamda rivojlantirishga bo'lgan mas'uliyat kabi ma'nolar ni ko'rish mumkin. Darhaqiqat, til, ko'pchilik e'tirof etganidek, ilohiy ne'mat. Har bir til muayyan xalq, millat, elat va, hech bo'limganda, bitta qavmni paydo qilishga qodir. Ammo mazkur jarayonga teskari rakursdan qarasangiz, dunyodagi barcha millat va elatlar birlashib bitta tilni yarata olmasligini ko'rasiz. Bu tilni ilohiyot bilan bog'lovchi nazariya tarafdarlari uchun eng "zalvorli" dalildir. Modomiki, til ilohiy mo'jiza ekan, unga nisbatan munosabat ham muqaddaslashishi kerak.

Dunyoda til kabi eng muhim va, ayni paytda, eng qadrsiz hodisalar kam uchraydi. Tilning mazkur "qora ro'y-xat" dan joy olishiga uning mazmun-mohiyatini to'la anglamaslik, uning ahamiyatini nazar-pisand qilmaslik, unga

nisbatan haddan ortiq befarq munosabat sabab bo'lmoqda, desak, adashmagan bo'lamiz. Tilimizga nisbatan shu tilda so'zlashuvchilarning ijtimoiy fikrini ongli ravishda ijobiy tomonga o'zgartirmas ekanmiz, tilimiz "xavf guruhi"da qolaveradi. Bu, ko'pchilik o'ylaganchalik (aslida, o'ylama-ganchalik), shunchaki xavf emas. Bu milliy o'zlik va qiyofamizga, tafakkur tarzimizga ta'sir ko'rsatishga qodir va oqibatlari millatimizning ko'rmsizlashib, boshqa millatlar ga singishib ketishiga olib keluvchi xavfdir.

Bahslashishga "arziydig'an" illat

Modomiki, gap til haqida borar ekan, bugungi kunda anchayin avj olgan bir illatga to'xtalishni joiz deb bildik. Zero, millatdoshlarimiz orasida tobora avj olayotgan bu qusur milliy tilimizning yo'qolib ketishiga sabab bo'lувchi oqibatlari bilan mubohasaga "arziydi". Bu ikki tilni o'zaro qorishtirib gaplashish bilan bog'liq "madaniyatsizlik ilati"dir.

Milliy tilga nisbatan bepisand munosabat haqida om-maviy axborot vositalari orqali juda ko'p gapirilmoqda.

Ammo, shunga qaramasdan, jamoatchilikning bu masalaga nisbatan e'tiborsizligi davom etmoqda. Nega shunday? Bu savol meni ham o'ylantirdi va quyidagicha javobni "topdim": til mohiyat e'tibori bilan umumiy bo'lsa-da, uning oqibati bo'lmish nutq sof xususiy hodisa hisoblandi. Xususiy hodisalariga daxl qilish borasida esa biroz andisha va cheklolar mavjudki, ayni shu jihat jamoatchilikning tilni o'z bilganlaricha istifoda etishlariga sabab bo'lmoxda.

Til tabiatan osonlikka intiladi

Til tabiatan osonlikka intiladi va insonlar qanday gapiresh qulay bo'lsa, shunday gapiradilar. Inson uchun adabiy tilda gapirishdan ko'ra o'z shevasida gapirishning qulayligi shundan. Ammo bu erkinlik tilga nisbatan behurmatlik qilishga izn bermasligi kerak. Milliy tilning mavjudligi va unga hurmat ko'rsatish, umuman, bu hodisaning nima ekanligini tushunish kishiga yuksak ma'nnaviy qoniqish hissini beradi, buni tom ma'noda madaniyatli kishi yaxshi anglaydi. Demak, madaniyat va milliy til bir-biridan uzoq tushunchalar emas ekan.

Tilimiz "yamoq"qa muhtojmi?

Insonning o'z tiliga hurmati va shu tilni qay darajada bilishi uning madaniyatidan darak beradi. Madaniyatni tom ma'noda tushungan har qanday inson o'z tilining sofligi, uning jahon tillari orasidagi mavqe-martabasi, e'tirofi va tantanasi uchun o'zini mas'ul hisoblaydi. Bunday insonlar qaysi tilda gaplashsalar, o'sha tilning sofligini saqlaydilar. Ularning madaniyati tilga hurmat va undan qay tarzda foydalinishda namoyon bo'ladi. Ammo bugungi kunda tilimizda anchayin avj olgan bir muammo bor. Bu ayrim kishilarning o'zbekcha gapirib ruscha, ruscha gapirib o'zbekcha so'zlarni aralashitirishlari bilan bog'liq. Ayrimlar buni kichik muammo deb o'ylashlari mumkin. Ammo buning ortida milliy qiyofasizlik masalasi yotgанини o'ylab ko'rganmisiz? Avvalo, bu hodisa har ikkala tilni ham buzish va uning yuziga oyoq qo'yishdan boshqa narsha emas. Aslida bunday "yamoqchilik"ka na Pushkin va Lermontovni sharaf arshiga ko'targan rus tili, na Navoiy va Boburni hurmat va e'tirofning haddi a'losiga munosib ko'rgan o'zbek tili muhtoj emas. Bu ikkala til ham, ba'zi didi buzuq mahmadonalar qo'llayotganidek, birining "kuuchi yetmay" qolganda ikkinchisining "yordami"ga muhtojlik sezmaydi. Ikkala til ham har qanday fikrni bayon qilish uchun yetarli so'z zaxirasiga, o'sha fikrni go'zal va ta'sirli ifodalash uchun esa o'z nafosatiga ega. Eng yomoni, o'z fikrlarini shu tarzda bayon etayotgan o'sha kishilar bu ishlarni zamonaviylik, madaniyat belgisi deb tushunishlaridir. Bu noto'g'ri qarash, aslida, mohiyat e'tibori bilan ularning fikrlariga mutlaqo zid bo'lib, madaniyat emas, madaniyat-sizlik belgisidir.

Bir necha xorijiy tillarni bilish zamonaviy dunyoda qanchalik ahamiyatlari ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Bugungi kunda yoshlarning xorijiy tillarda biyron gaplashishlarini ko'rib ularga havas qilamiz. Ammo bir necha tillarni bilish insonga fikrni ifodalashda o'sha tillardan qorishtirib foydalinish huquqini bermaydi. O'zini, millatini, tilini va shu bilan bir qatorda o'zga tillarni hurmat qilgan kishi bu kabi nomaqbul ishni o'ziga ep ko'rmaydi.

Oqibatlar...

Ikki tilni qorishtirib gaplashishning ijtimoiy oqibatlarini tilning tabiatiga xos quyidagi hodisalar bilan bog'liq:

– **birinchidan**, til ong va tafakkur bilan chambarchas bog'liq. Bu ikki tushuncha bir-birini taqozo etadi va biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi. Tafakkur jarayoni

ongimizda til elementlari ko'rinishida kechadi. So'z va boshqa til unsurlari tushuncha sifatida ongda tafakkur yuritish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon til unsurlarisiz amalga oshmaydi. Ammo o'sha tafakkur yuritish jarayoni qaysi tilda amalga oshiriladi? Mutaxassislar tafakkur yuritish jarayoni kishining ona tilida amalga oshiriladi, deb ta'kidlaydilar. Ammo, bizningcha, bu fikr biroz shubhali. Sababi ona tili insonga irlsiy yo'l bilan o'tmaydi. Til ijtimoiy hodisa sifatida hayot davomida o'zlashtiriladigan hodisadir. Shunday ekan, insonning qaysi tilda tili chiqsa, u yoshligidan qaysi tilni o'zlashtirsra, uning uchun qaysi tilda muloqot qilish oson bo'lsa, o'sha tilda fikrlaydi, deyish to'g'iroq bo'ladi;

– **ikkinchidan**, tildan qanchalik ko'p foydalanilsa, uning imkoniyatlari yanada oshib, sayqal topib, rivojlanib boraveradi. "Eskirish" tushunchasi tilga nisbatan teskarishlaydi. Ya'ni undan qanchalik ko'p foydalanilsa, u boyib, yangilanib boradi, aksincha, undan foydalanimasa, u eskirib, yo'qolib boraveradi. Yer kurrasida 6000 ga yaqin tillar mavjud bo'lib, shulardan 1400 tasi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Bu tillarning yo'qolib ketishiga shu til egalarining o'zga tillarni o'z tilidan ustun qo'yishi, o'z ona tillarini mensimaganliklari, uning sofligi va taraqqiy etishi uchun kurashmaganliklari sabab bo'lmoxda;

– **uchinchidan**, til doimiy ravishda o'zgarib turadigan ijtimoiy hodisa. Bu o'zgarishlar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Tildagi ifoda imkoniyatlarining oshishi, leksik sathining kengayishi va adabiy til imkoniyatlarining mustahkamlanishi ijobiy holat sifatida shu til egalarining sa'y-harakatlariga bog'liq. Til sofligining buzilishi, vulgarizm va varvarizmlarning faollashuvi, adabiy til mavqeyining pasayishi kabilar salbiy jihatlar bo'lib, bu ham shu til egalarining mas'uliyatsizligi natijasida sodir bo'ladi. Bunga kuchli tillarning kuchsiz tillarni istilo qilishi bilan bog'liq tabiyiy jarayonni ham qo'shsak bo'ladi. Yo'qolib ketishga mahkum bo'lgan til egalari mana shu jarayonlarni to'g'ri anglamaganliklari va unga qarshi choralar ko'rmanganliklari ulardagi milliy tillarning mahv bo'lishiga sabab bo'lmoxda. Demak, tilning doimiy mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun u doimo faoliy bilan amalda qo'llanishi, boshqa tillarning unga salbiy ta'sirlarini bartaraf etish kerak bo'ladi.

Tildagi har qanday jarayon, xoh u salbiy, xoh ijobiy bo'lsin, asta-sekinlik bilan o'zining ijtimoiy oqibatlarini namoyon qiladi. Xuddi shuningdek, o'zbek va rus tillarini qorishtirib gaplashish bilan bog'liq, bir qaraganda unchaliq jiddiy ko'rinnagan muammo, asta-sekinlik bilan ona tilimiz mavqeyining pasayishi, geografiyasining torayishi, so'zlashuvchilar sonining kamayishi, millatdoshlarimizda tilimizning nafosati va go'zalligini his etmaslik bilan bog'liq yangi ijtimoiy oqibatlarini keltirib chiqaradi. Eng achinarlisi, millatdoshlarimiz orasida o'zga tilda tafakkur yuritadigan kishilarning ko'payishiga olib keladi. Ularning o'zga tilda tafakkur yuritishi esa milliy fojiadir. Inson tafakkur tarzinining o'zga tilda amalga oshishi, bu milliy o'zlik va qiyofaning yo'qolishi sari qo'yilgan mudhish qadam hisoblanadi.

Xulosa

Insonning siyratida go'zallik, suvratida o'sha go'zallikka moslik, tiynatida samimiylilik va soqlik, tabiatida axloqiy sifatlar bo'lishi lozim. Bunga yana tilga nisbatan hurmat ham qo'shilsa, bunday sifatga ega insonlarni tom ma'noda **madaniyatli inson** deyish mumkin.